

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**MAXMUDOVA MUATTAR MAXSATILLOYEVNA**

**SADRIDDIN SALIM BUXORIYNING ASLIYATDAN TARJIMALARIDA**  
**ADEKVATLIK VA IJODIYLIK**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2023**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi  
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам  
The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

**Maxmudova Muattar Maxsatilloevna**  
Sadriiddin Salim Buxoriyning asliyatdan tarjimalarida adekvatlik va ijodiylik..... 3

**Махмудова Муаттар Махсатиллоевна**  
Адекватность и творческий характер в переводах с оригинала Садриддина Салима Бухари ..... 21

**Makhmudova Muattar Makhsatulloevna**  
Adequacy and Creativity in the Original Translations of Sadriiddin Salim Bukhariy ..... 41

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**  
Список опубликованных работ  
List of published works ..... 45

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**MAXMUDOVA MUATTAR MAXSATILLOYEVNA**

**SADRIDDIN SALIM BUXORIYNING ASLIYATDAN TARJIMALARIDA  
ADEKVATLIK VA IJODIYLIK**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2023**

<https://buxdu.uz>

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2020.4.PhD/Fil956 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** O'raeva Darmon Saidaxmedovna  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** Karshibaeva Uljan Davirovna  
filologiya fanlari doktori, dotsent


Baymanov Xabibullo Abdullaevich  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Yetakchi tashkilot:** Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil « 25 » mart soat 11<sup>00</sup> da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu\_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (275 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil « 13 » mart kuni tarqatildi.  
(2023-yil « 13 » mart da 23-10 - raqamli reestr bayonnomasi.)



**M.Q.Baqoyeva**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi o'rinbosari, filologiya fanlari doktori, professor

**Z.I.Rasulov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori, dotsent

**M.M. Jo'rayeva**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tarjimashunosligida milliylik va badiiylikni tarjimada qayta yaratish, adekvatlik va ijodiylik masalalari, milliy mentalitetga xos xususiyatlarni ochib berish, ularda kechgan transformasion jarayonlarga ilmiy baho berish yoʻnalishidagi ilmiy-nazariy qarashlarni umumlashtirish masalasiga alohida diqqat qaratilmoqda. Jumladan, qardosh va qardosh boʻlmagan tillar oʻrtasida tarjimada milliy-madaniy hamda badiiy xususiyatlarning adekvat talqini, asliyatni shaklan va mazmunan yaxlitlikdagi ijodiylikni nazariy hamda amaliy izohlash talabini keltirib chiqardi. Zero, tarjimashunoslik sohasida mazkur masalalar boʻyicha salmoqli tadqiqot ishlari amalga oshirilgan boʻlsa-da, tillar oʻrtasida tarjima sohasida oʻrganilishi lozim boʻlgan muammolar muhim ahamiyatga ega.

Dunyo adabiyotshunosligida oʻzbek adabiyoti va uning bir qismi boʻlgan Buxoro adabiy muhiti, qadimdan bu hududda yashab ijod qilib, yaratgan ilmiy, diniy-maʼrifiy, badiiy, tarjima asarlari bilan nomi dunyoga tanilgan ulugʻ insonlar hayoti va ijodini oʻrganish boʻyicha izlanishlar olib borilmoqda. Buxoro adabiy muhitining to hozirgacha davom ettirib kelinayotgan poetik anʼanalarini ilmiy oʻrganish hozirgi adabiyotshunoslik rivojining xususiyatlarini, janrlar takomilini, badiiy-estetik tajribalarning yangilanish ehtiyoji va ijtimoiy-psixologik asoslarini aniqlash hamda baholash imkonini berishi, yaratilgan asarlarning mazmun-mohiyatini, janriy tarkibi va uslubiy yoʻnalishlarini chuqur anglash uchun mualliflar ijodini ular yashagan davr va muhit bilan bogʻliqlikda oʻrganish masalalariga alohida diqqat qaratilmoqda.

Mamlakatimizda milliy oʻzligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli sifatida tilimiz mavqeiga katta eʼtibor qaratilayotgan hozirgi bir sharoitda «Har birimiz davlat tiliga boʻlgan eʼtiborni mustaqillikka boʻlgan eʼtibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz lozim».<sup>1</sup> Bu esa milliy tilimizda yaratilgan badiiy, tarixiy, falsafiy, publisistik, maʼrifiy, tarjima asarlarni kengroq oʻrganish sari undaydi. XX asr oxiri hamda XXI asr boshlari oʻzbek adabiyotini shunday ruhdagi asarlari, nemis va tojik tilidan asliyatda amalga oshirgan tarjimalari, yaratgan doston, soʻfiyona sheʼrlar, tatabbu, ruboiy va toʻrtlik, bagʻishlov, hazil-mutoyiba, marsiya, hikmatlari bilan boyitgan serqirra zullisonayn ijodkor, tasavvufshunos olim, shoir, tarjimon Sadridin Salim Buxoriy merosi alohida eʼtiborni tortadi. Oʻz asarlarida ona yurti Buxoroga boʻlgan samimiy muhabbati, undan faxrlanish tuygʻusi, vatanparvarlik hissini betakror badiiyat orqali ifoda eta olgan shoirning estetik psixologiyasini, ijodkorlik va asliyatdan adekvat tarjimonlik mahoratini u yashagan davr ijtimoiy-tabiiy voqeliklari bilan uzviylikda yoritib berish milliy adabiyotshunosligimizni nazariy qarashlar, yechimlar bilan boyitishga keng yoʻl ochadi.

---

<sup>1</sup>Миллий ўзлгимиз ва мустақил давлатчилигимиз тимсоли.Президент Шавкат Мирзиёевнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи / Халқ сўзи. – Тошкент, 2019, 22 октябр. – № 218 (7448). – Б.1..

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21 oktyabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017 yil 17 fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021 yil 19 maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Jahon va rus adabiyotshunosligida F.Bodenshtedt, H.Broms, K.Burdax, Y.X.Byurgel, K.Momsen, V.M.Jirmunskiy, I.S.Braginskiy, A.M.Kogan, A.Kessel, O.Konradi, R.A.Dexoti kabi olimlarning nemis shoiri Y.V.Gyotening “G‘arbu Sharq devoni” tahliliga oid monografik tadqiqotlar, ilmiy izlanishlar olib borilgan.<sup>2</sup>

O‘zbek adabiyotshunosligida G‘.Salomov, M.Sulaymonov, P.Usmon, R.Karimov, S.B.Yoqubov, A.Allaberganov, N.Komilov, S.Salimov, Ya.Egamova, K.Tojiyev, S.Jabborov, K.Bobojonova tadqiqotlari ham shu siraga kiradi.<sup>3</sup>

---

<sup>2</sup> Bodenstedt F. Der Sänger von Schiras.Hafisische Lieder. Verdeutsch durch Friedrich Bodenstedt. Berlin; Hoffman comp.1977.– 211 S.; Broms H. Studies in the relations of Hafiz and the west.Helsinki, 1968. –105 p.;Burdach K. Zur Entstehungsgeschichte des West-östlichen Divans. Drei Akademievorträge. Herausgegeben von Ernst Grumach. –Berlin: Akademie-Verlag, 1955. –103 S.; Bürgel J.Ch. Drei Hafis-Studien. –Bern-Frankfurt/V.: Herbert und Peter Lang,1975. –80 S. Mommsen K. Goethe und Isla. Stuttgart. 1964. –15 S. Жирмунский В.М. Гете в русской литературе. – М.: Наука, 1962. – 558 с.; Брагинский И.С. Западно-восточный синтез в «Диване» Гетеклассическая поэзия на фарси // XXVI Междунар.конгресс востоковедов. – Доклады делегации СССР. – М., 1963. – С.1-11.; Брагинский И.С., Коммисаров Д.К. Персидская литература. – М.: Изд-во вост.лит., 1963. – 213 с.; Брагинский И.С. Проблемы теории литературы и эстетики в странах Востока. – М.: Наука, 1964. – 340 с.; Брагинский И.С. Проблемы соотношения творчества Петрарки Хафиза // Проблемы истории и теории мировой культуры. – М.: Наука, 1974. – С.130-142; Коган А.М. Восточные мотивы в “Западно-восточный диване” Гете: Дисс.... канд. филол. наук. – Ташкент, 1970. – 325 с.; Кессель Л.М.Гете и “Западно-восточный диван”. – М.: Наука, 1973. – 120 с.; Конради О. Гете. Жизнь и творчество. 1.2. Итог жизни. Пер. с немецкого.Общая ред. Гугина А. – М.: Радуга, 1987. – 648 с. Дехоти.Р.А. Изучение Хафиза и интерпретация его творчества в Германии первой половины XIX в.: Автореф. дисс.... канд. филол. наук. – Душанбе, 1984. – 23 с.

<sup>3</sup> Саломов Г., Сулаймонов М. Ҳофиз ва Гёте. – Гулистон. – 1974. – № 7. – Б. 23; Саломов Г.Т.Литературные традиции и прблемы художественного перевода: Автореф. дисс.... док.филол. наук. – Ташкент, 1982. – 32 с.; Пошали Усмон ўғли. Журъати маҳоратига эш. Таржима санъати. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976. – Б.182- 202; Каримов Р. Ҳофиз Шерозий ва немис адабиёти (кискача очерк). Таржима санъати. – Тошкент: Ғ.Ғулом адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. – 241-244 б.; Якубов С.Б. К проблеме взаимовлияния и взаимообогащения литератур (На основе материалов литературных связей Узбекистан и ГДР 1960-1975 гг.): Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1980. – 141 с.; Аллаберганов А. Воспроизведение единства содержания и формы подлинника в поэтическом переводе: Автореф. дисс.... канд. филол. наук. – Ташкент, 1986. – 19 с.; Оллоберганов О. Гёте ва Шарқ адабиёти. Таржима маданияти:

Y.V.Gyotening “G‘arbu Sharq devoni”ning o‘zbek tiliga tarjima qilgan tarjimon-shoir Sadridin Salim Buxoriy ijodiga bag‘ishlab alohida risolalar ham yaratilgan. Bunga I.G‘aniev va N.Afoqova hammuallifligida yozilgan “Shaxs va ijod”, G‘.Murodovning “Yorug‘lik olami” risolalari misoldir.<sup>4</sup>

Shoirning turmush o‘rtog‘i M.Salimova S.S.Buxoriy xotirasi haqida “Yorug‘lik odami” kitobini chop ettirdi.<sup>5</sup> S.S.Buxoriy ijodini keng planda o‘rganish, uning ijodkorlik mahoratini, asarlari poetikasini, ma’rifiy-estetik mohiyatini, xususan, tarjimonlik faoliyatini chuqur tadqiq qilish O‘zbekistonning mahalliy hududlaridagi adabiyot maktablarining o‘zbek adabiyoti rivojiga hamda xalq ma’naviyatini oshirishga qo‘shayotgan hissasini bilib olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Tadqiqot Buxoro davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasidagi 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan “Qiyosiy-tipologik izlanishlar va tarjimashunoslik muammolari” mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** XX asr oxiri va XXI asr boshlari Buxoro adabiy muhitining yirik vakili tarjimon-shoir Sadridin Salim Buxoriyning nemis tilidan o‘zbek tiliga asliyatdan tarjimalarida adekvatlik va ijodiylik belgilarini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Sadridin Salim Buxoriyning ijodiy biografiyasini tavsiflash orqali uning serqirra ijodkor ekanini, qoldirgan boy ijodiy merosi XX asr oxiri va XXI asr boshlari Buxoro adabiy muhiti rivojida hamda o‘zbek adabiyoti taraqqiyotida muhim o‘ringa egaligini asoslash;

Sadridin Salim Buxoriy ijodiy faoliyatida zullisonaynlik, an’anaviylik va novatorlik belgilarini aniqlash;

shoir tarjimalarini aniqlash orqali tasniflash, ijodkorning she’riy badiiy tarjimalarida mavzu, motiv, obraz, lingvopoetik vositalarning milliy ruhi va manzarasini saqlashdagi mahoratini ochib berish;

Sadridin Salim Buxoriyning tarjima asarlarini o‘rganish asosida uning asliyatdan tarjima qilishda til bilish hamda qulay usul tanlash bilan adekvatlikni ta’minlash mahoratini dalillash;

shoirning tasavvufiy asarlardan hamda o‘z asarlarining xorijiy tillarga tarjimalarini, ularga aloqador janriy, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarni aniqlash;

---

Тошкент: Ўқитувчи, 1982. – В.94-95; Комилов Н. Тафаккур карвонлари // Махсус мухаррир: Р.Қўчқор. – Т.: Маънавият, 1999. – Б. 13-14; Бухорий С.С. Тасаввуф ва Гёте. – Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 1993. – 25 июнь.; Эгамова Я. Гётенинг “Гарбу Шарк девони” ва унинг ўзбекча таржимаси хусусида // Гулистон давлат университети Ахборотномаси. – 2002. – № 1. – Б. 58-63; Таджиев К. Творчество Максуда Шейхзаде – переводчика: Автореф. дисс.... канд. филол. наук. – Ташкент, 1984. – 18 с.; Жабборов С. Ш. Гётенинг “Гарбу Шарк девони”. Матн. Талкин. Таржима: Филология фанлари номзоди... автореферати. – Тошкент, 1995. – 24 б. Джаббаров Салим. Гёте и его “Западно-восточный диван”. Монография. – Самарканд, 2015. – 123 с. Бобожонова К. Гёте ва Шарк. – Жаҳон адабиёти. – 2007. – № 4. – Б. 172-179.

<sup>4</sup>Ганиев И., Афокова Н. Шахс ва ижод. – Бухоро, 1995. – 56 б.; Муроодов Ғ. Ёруғлик олами. (Маънавий-маърифий рисола). – Бухоро: Дурдона, 2016. – 70 б.

<sup>5</sup>Салимова М. Ёруғлик одами. Садриддин Салим Бухорий хотираси. – Т.: Наврўз 2019. – 164 б.

Gyotening “Mag‘ribu Mashriq devoni” tarjimalarini Maqsud Shayxzoda va S.S.Buxoriy tarjimasini bilan qiyoslash asosida bilvosita hamda bevosita tarjimalardagi individual qirralarini asoslash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida nemis tilidan o‘zbek tiliga S.S.Buxoriy tomonidan amalga oshirilgan tarjima matnlari tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** Sadridin Salim Buxoriyning nemis tilidan badiiy tarjimalarida adekvatlik va ijodiy yondashuv masalalari tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida biografik, qiyosiy-tipologik, qiyosiy-chog‘ishtirma, kontekstual-situativ, kontekstual-distributiv, analitik hamda komponent tahlil metodlaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Sadridin Salim Buxoriyning badiiy matn tarjimasiga yondashuvi, tarjimonning estetik psixologiyasi, tarjimachilik bilan bog‘liq ijodiy biografiyasi tizimli tahlil asosida o‘rganilishi orqali hozirgi adabiyotshunoslik, komparativistika, tarjimashunoslik rivojining xususiyatlari, janrlar takomili, badiiy-estetik tajribalarning yangilanish ehtiyoji va ijtimoiy-psixologik asoslari aniqlangan;

Sadridin Salim Buxoriyning tarjima asarlarida adekvatlikka erishish imkoniyatlarining kengligi, asliyatning poetik xususiyatlarini chuqur idrok etgan holda ularni o‘z o‘rnida saqlab qolish imkonini berishi muallif va mutarjim ovozining yaxlitligi, umuminsoniy jihatlarining ustuvorligi kabi tamoyillar asosida kechishi dalillangan;

shoirning qator ash‘or, doston, so‘fiyona she‘rlar, tatabbu, ruboiy, to‘rtlik, bag‘ishlov, hazil-mutoyiba, marsiya, hikmat kabi nazmiy durdonalarida ona yurtga bo‘lgan samimiy muhabbati, faxrlanish tuyg‘usi, vatanparvarlik hissi betakror badiiyat ustuvorligida namoyon bo‘lishi isbotlangan;

Sadridin Salim Buxoriy she‘riy va nasriy badiiy tarjimalarida asliyatdagi mavzu, motiv, obraz, lingvopoetik vositalarning milliy ruhiyati va manzarasini ifodalash mahorati, undagi tasavvuf tariqatlari g‘oyalarining ilmiy va badiiy talqinlarini chuqur anglagan holda tarjimada berish bilan bog‘liq ijodkorligi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

shoir va nemis tili mutaxassisi Sadridin Salim Buxoriy tomonidan bevosita asliyatdan, M.Shayxzodaning asliyatdan rus tili orqali tarjimalarida G‘arb va Sharq adabiy aloqalari, o‘zaro adabiy ta‘sir muammolarini chuqurroq o‘rganish imkoniyatlari ochib berilgan;

tarjimon Sadridin Salim Buxoriy ijodining milliy, badiiy xususiyatlarini, unda an‘ana va individuallikni, tarjimachilik mahoratini hozirgi adabiy jarayonga xos nazariy estetik tafakkur nuqtai nazaridan yoritish, shoir tarjimalarini semantik-stilistik, struktural va funksional jihatdan keng tahlil qilish adabiyotshunoslik, va tarjimashunoslikka oid yaratilajak darslik va qo‘llanmalarining mukammallashuviga xizmat qilishi asoslangan;

hozirgi adabiy jarayon va tarjimashunoslik aspektlari, zamonaviy usul va metodlari haqidagi bilimlarni kengaytirishi barobarida qiyosiy adabiyotshunoslik,

chog‘ishtirma tilshunoslik, tarjimashunoslik, folklorshunoslik, adabiyot nazariyasi fanlari uchun uchun muhim ilmiy-nazariy ma‘lumotlar berishi dalillangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** dissertatsiyada qo‘llanilgan ilmiy-metodologik yondashuv va usullar, nazariy ma‘lumotlarning ilmiy va badiiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar biografik, qiyosiy-tipologik, tarixiy-qiyosiy, analitik hamda komponent tahlil usullari vositasida asoslanganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganli bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda chiqarilgan nazariy xulosalar xorijiy adabiyotlar va tarjima maktablarining taraqqiyot xususiyatlarini aniqlash, ularning o‘zbek adabiyoti rivojidadagi o‘rnini belgilab ko‘rsatish, ularning ko‘zga ko‘ringan vakillarining adekvatlik va ijodkorlik jihatlarini o‘rganish bilan belgilanadi.

Dissertasiya natijalarining amaliy ahamiyati ishdagi nazariy umumlashma va tahlillardan oliy, o‘rta maxsus ta‘lim tizimida, umumta‘lim maktablarida hozirgi adabiy jarayon, tarjima nazariyasi va amaliyoti bo‘yicha maxsus kurslar o‘tishda, nemis va o‘zbek adabiyoti, sharqshunoslik fanlaridan ma‘ruzalar o‘qishda, dars mashg‘ulotlari olib borishda, shuningdek, o‘zbek adabiyotidan o‘quv qo‘llanma, majmua va antologiyalar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tarjimon Sadridin Salim Buxoriyning nemis tilidan o‘zbek tiliga aslyatdan tarjimalarida adekvatlik va ijodiylik belgilarini aniqlash jarayonida erishilgan ilmiy natijalar asosida:

Sadridin Salim Buxoriyning badiiy matnga mutaxassis sifatida yondashuvi, taraqqiyot tamoyillari, estetik psixologiyasi, tarjima tili bo‘yicha o‘ziga xos uslubi, tarjimachilik bilan bog‘liq ijodiy biografiyasi tizimli tahlil asosida o‘rganilib, ijodkorlik mahoratining individual qirralariga oid nazariy xulosalardan Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida 2017-2020 yillarda bajarilgan FA-F-1-005 “Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental ilmiy loyihani bajarishda foydalanilgan (O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limining 2022 yil 10 iyundagi №17.01/132-son ma‘lumotnomasi). Natijada ushbu dissertatsiyada o‘z asarlari bilan poetik an‘analarga sadoqati barobarida individual mahoratini to‘la namoyon eta olgan ijodkorlarning badiiy-estetik tajribalari haqidagi ilmiy xulosalar adabiyot va adabiyotshunoslik tarixini yoritish tamoyillarini belgilashda o‘z o‘rniga egaligini asoslashga xizmat qilgan;

Sadridin Salim Buxoriyning tarjima asarlarida adekvatlikka erishish imkoniyatlarining kengligi, aslyatning poetik xususiyatlarini chuqur idrok etgan holda ularni o‘z o‘rnida saqlab qolish imkoni ifodalanishi muallif va mutarjim ovozining yaxlitligi, umuminsoniy jihatlarining ustuvorligi kabi tamoyillar asosida kechishiga oid nazariy va amaliy materiallardan Samarqand davlat chet tillar institutida 2016-2018 yillarda amalga oshirilgan 561624-EPP-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS + CBHE IMEP: “O‘zbekistonda oliy ta‘lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish” innovasion tadqiqot loyahasini bajarishda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2022 yil 13 iyundagi №1744/30.02.01-son ma‘lumotnomasi). Natijada mazkur tadqiqot natijalaridan tarjimashunoslik asoslarini, tarjima nazariyasi va amaliyotini

modernizatsiya qilish, ta'lim jarayonlarini mustahkamlash va baynalmilallashtirishga qaratilgan darsliklarni yaratishda yangicha yondashuv asosi sifatida foydalanishga erishilgan;

shoirning qator ash'or, doston, so'fiyona she'rlar, tatabbu, ruboiy, to'rtlik, bag'ishlov, hazil-mutoyiba, marsiya, hikmat kabi nazmiy durdonalarida ona yurtga bo'lgan samimiy muhabbati, faxrlanish tuyg'usi, vatanparvarlik hissi betakror badiiyat ustivorligida namoyon bo'lishi bilan bog'liq xulosa va natijalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining "Assalom, Buxoro", "Sakkizinchi mo'jiza", "Adabiy muhit", "Asrlarning asraganlari" teleko'rsatuvlari, shuningdek, "Muloqot va munozara", "Qadriyatlar qadim beshigi" radioeshittirishlari ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 2022 yil 7 iyundagi №1/132-son ma'lumotnomasi). Natijada bu ko'rsatuvlarni tayyorlashda buxorolik shoirlarning asarlari, ijodiy merosi, xususan, turli tizimli tillardagi asarlarni asliyatdan o'girishda til bilish mahorati bilan bog'liq qiziqarli tahliliy materiallar teletomoshabinlar va radio tinglovchilar e'tiboriga havola qilingan. Buning barobarida ushbu teleko'rsatuvlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukamallashtirilib, ilmiy dalillarga boy bo'lishiga, ko'rsatuvning ilmiy-ommaboplik xususiyati oshirilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 9 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, ulardan, 2 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 148 sahifani tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi, zarurati, o'rganilganlik darajasi asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'ekti, predmeti, usullari, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, olingan natijalarning ilmiy, amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, nashr qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Sadriddin Salim Buxoriy – iste'dodli tarjimon**" deb nomlangan. Uning "*XX asr oxiri va XXI asr boshi Buxoro adabiy muhiti va badiiy tarjimachiligi rivojida Sadriddin Salim Buxoriyning o'rni*" deb atalgan ilk faslida shoirning ijodiy biografiyasi tavsifi keltirilgan.

XX asr Buxoro adabiy maktabini Sadriddin Salim Buxoriy ijodisiz tasavvur qilish qiyin. Uning badiiy-estetik izlanishlari tufayli mazkur qadimiy ma'naviyat

o'chog'ining badiiy madaniyati yanada boyidi. Shoirning tasavvufga, avliyolar tarixiga oid ma'rifiy asarlari, tojik va nemis tilidan qilgan go'zal tarjimalari, "Sharif manzaralar" nomli badiolari nafaqat yurtimizda, balki xorijlik o'quvchilar orasida ham e'tiborga tushib, ko'pchilikda qiziqish uyg'otdi.

Buxoro adabiy-madaniy muhitining peshqadamlaridan bo'lgan S.S.Buxoriy serqirra va zullisonayin ijodkor edi. U ham o'zbek tilida, ham tojik tilida juda ko'p janrlarda ijod qildi. Shoir yaratgan lirik va falsafiy, so'fiyona she'rlar, tatabbular, ruboiy va to'rtliklar, bag'ishlovlar, hazil she'rlar, marsiyalar uning betakror iste'dod sohibi ekanligini anglatishi bilan birga, mumtoz adabiyot an'alarini sadoqat bilan zamonaviy shakl va mohiyatda davom ettira olgan mahoratli so'z san'atkori ekanligidan dalolatdir.

S.S.Buxoriy she'riyatga dastlab tabiat kuychisi sifatida kirib keldi. Umuman, uning juda ko'p she'rlarida yerga, osmonga egalik va ega sifatida mehribonlik tuyg'usi tarannum etilgan. Shuni inobatga olib, taniqli adabiyotshunos Ibrohim G'afurov "Yosh qalbning tajribalari" maqolasida: "Sadriddin tabiatning kitobini o'qiganda, unga berilib quloq solganda, tabiat hodisalaridan inson hodisalariga ko'chishni, o'rtada yaqinliklar, uyg'un nuqtalarni topishni yaxshi ko'radi.... Bu jihatdan Sadriddin Salimov Xurshid Davron bilan Muhammad Rahmonga juda yaqin turadi", – deydi.<sup>6</sup>

Sadriddin Salim Buxoriy ijodi kuchli milliylik ruhi va vatanparvarlik tuyg'usi bilan sug'orilgan edi. U o'z vatanparvarligini shu Vatan va xalq uchun fidoyilik ko'rsatgan, uning nomini tanitgan farzandlari haqida kuylash, ularning ma'rifat va ma'naviyat, madaniyat targ'ibi yo'lida yaratgan asarlarini yuzaga chiqarish orqali namoyon etdi. U yana asosiy e'tiborini ona yurtning beqiyos go'zal tabiatini, Buxoroning muhtasham tarixiy obidalarini, ularni bunyod etgan ajdodlaridan faxrlanish hissini, buyuk bobokalonlariga munosib voris bo'lish orzu-intilishini kuylashga qaratdi. Shu tariqa Buxoro shoir she'riyatining o'zak mavzusiga aylandi. O'zbekiston xalq yozuvchisi Ne'mat Aminov ta'biri bilan aytganda, Buxoro uning uchun bu yorug' dunyodagi eng oliy qadriyat edi. U badiiy ijodga o'z mavzusi, o'z e'tiqodi bilan kirib keldi".<sup>7</sup> Ayniqsa, u Vatan va e'tiqod kuychisi edi.

"Shunday shoirlar ham borki, Vatan mavzui ular ijodining asosiy yo'nalishini belgilaydi. Sadriddin Salim Buxoriy ana shunday shoirlardan... Zero, shoir uchun Vatan Buxorodan boshlanadi: u O'zbekistonni ham, butun dunyoni ham Buxoro orqali ko'radi, sevadi va ta'rif etadi. Buxoro uning uchun "urib turgan yurak", "mo'ysafid ona", "muqaddas Makkayu Madina",<sup>8</sup> deya fikr bildirgan edi E.Ochilov.

Umuman aytganda, Sadriddin Salim Buxoriy she'riyatimizda Vatan mavzuining ufqini uni so'fiyona sevish mavzusida kengaytirdi. Buxoroning tarixiga bag'ishlangan she'rlarida sho'rolar hukmronligi davrida bu yerdagi tarixiy

<sup>6</sup> Гафуров И. Ёш қалбнинг тажрибалари..Биринчи мақола.(1980).

<sup>7</sup> Аминов Н. Ватан ва эътиқод куйчиси / Шариф шаҳар шоири (Таниқли шоир ва таржимон, тасаввуфшунос олим Садриддин Салим Бухорий ҳаёти ҳамда илмий-ижодий фаолиятига чизгилар). – Бухоро: Дурдона, 2016. – Б..8.

<sup>8</sup> Очиллов Э. Садриддин Салим ижодида Бухоро мавзуси / Шариф шаҳар шоири (Таниқли шоир ва таржимон, тасаввуфшунос олим Садриддин Салим Бухорий ҳаёти ҳамда илмий-ижодий фаолиятига чизгилар). – Бухоро: Дурдона, 2016. – Б.211.

va madaniy obidalar qarovsiz qolgani, bir qanchasidan molxona, ustaxonalar, omborlar sifatida foydalanilganini fosh etdi. Buxoroni zaxga botirgan, vayronaga aylantirgan, uning taraqqiyparvar aziz farzandlarini qatag'on qilgan odamlar haqida Sadridin Salim Buxoriy nafaqat alamli satrlarni bitdi, balki hamyurti Ne'mat Aminov bilan matbuotda "Buxoroni qutqaring!" deb bong urib chiqib, hammani uyg'oqlikka da'vat qildi.

Shoir she'riyatining yana bir fazilati folklordan oziqlangani edi. Shoirning yoshligidan folklor, mumtoz she'riyat an'analari ruhida kamol topgani uning ijodida katta iz qoldirdi. N.Komilov aytganidek: "Undan katta ijodiy va ilmiy meros qoldi. Bu katta ijodiy merosning bugun o'rganilishi, yangidan tadqiq qilinishi, nashr etilishi nihoyatda xayrlidir".<sup>9</sup>

Erkin Vohidov ham "Irmoqlar" maqolasida shoir nomini alohida tilga olib o'tgan va uning kelajagiga umid bildirgan edi.<sup>10</sup> Yoki ustoz shoir Turob To'la bashorat qilganidek, Sadridin Salimov she'rlari o'z orqalaridan baquvvat, ko'rkam, so'lim, dilbar she'rlar, turkumlar, dostonlardan tashqari, katta-katta tarixiy, ma'rifiy-irfoniy asarlarni ham boshlab keldi".<sup>11</sup>

Sadridin Salim Buxoriyning tarixiy-ilmiy asarlari orasida Bahouddin Naqshband va buxorolik mashhur etti pir haqida yaratgan asarlari alohida silsilani tashkil etadi.

XX asr oxiri va XXI asr boshlari Buxoro adabiy harakatchiligini, Buxoro tarixi, madaniyatini Sadridin Salim ijodini chetlab o'tib o'rganib bo'lmaydi.

Bobning ikkinchi fasli "Sadridin Salim Buxoriyning tarjimon bo'lib shakllanish omillari" deb nomlangan. Sadridin Salim Buxoriy mahoratli tarjimon sifatida ham samarali ijod qildi. Uning tarjimon bo'lib yetishishiga o'nga yaqin omil bevosita zamin yaratgani shubhasiz. Birinchidan, bo'lajak tarjimon Salimov Sadridin Nabievich nemis tilini chuqur o'rgangan. Shoir yoshlikdan ham mutaxassis, ham kitobxon sifatida o'z bilimini mustahkamlab borgan. Ikkinchidan, Sadridin Salim Buxoriyning badiiy ijodida ko'proq o'z yurti aks etgan bo'lsa, asta-sekin G'arb mavzusi, xususan, olmon adabiyoti va tarixi, olmon ijodkorlari asarlaridan tarjimalar bo'rtib ko'rina boshladi. Uchinchidan, S.S.Buxoriy nemis tilidan tarjimalar qilishidan oldin Germaniyaga borib, uning tarixi, madaniyati, adabiyoti bilan yaqindan ruhan tanishishga muvaffaq bo'ldi. S.S.Buxoriy "Sayohat" she'rida yana Evropada Sharq nomi bilan bog'liq "Mashriq javohirlari", mashhur nemis adibi Gyote qalamiga aloqador "West-östlicher Divan" ("G'arbu Sharq devoni") ancha shuhratli ekaniga ishora qiladi. To'rtinchidan, shoir she'rlarining boshqa tillarga tarjima qilinishi ham uning tarjimonlik faoliyati boshlanishiga ilhom bag'ishlab, ijobiy ta'sir ko'rsatdi, deyish mumkin. Jumladan, taniqli boshqird shoiri Qaysin Quliyev Moskvada chiqadigan "Literaturnaya gazeta"dagi bir maqolasida yosh shoir Sadridin Salimov ijodiga alohida to'xtalib o'tgan. Uning "Sharq musulmonlarini yana chorlamoqdalar" (Zinaida Polvonova

<sup>9</sup> Комилов Н. Бухоро куйчиси / Шариф шаҳар шоири (Таниқли шоир ва таржимон, тасаввуфшунос олим Садриддин Салим Бухорий ҳаёти ҳамда илмий-ижодий фаолиятига чизгилар). – Бухоро: Дурдона, 2016. – Б.16.

<sup>10</sup> Воҳидов Э. Ирмоқлар / Совер Ўзбекистони. – 1976. – 15 апрель.

<sup>11</sup> Садриддин Салим Бухорий. Буюк хоразмийлар (Масъул муҳаррир Т.Жўра). – Т.: Ёзувчи, 1993. – 16 б.

tarjimasida),<sup>12</sup> “Askar”,<sup>13</sup> “Oq xat” (Nikolay Dmitriyev tarjimasida),<sup>14</sup> “Yurakdan quyilgan satrlar” (G.Kavachkov tarjimasida)<sup>15</sup> kabi she’rlari bosilib chiqdi. Shoir she’rlarini Evgeniy Gryaznov (1980), P.Kalin (1980) eng ko‘p tarjima qilishdi. Beshinchidan, shoir ona tili – o‘zbek tili barobarida fors-tojik tilini ham yaxshi bilardi. Shularni inobatga olib, adabiyotshunos N.Komilov shoir haqida shunday ta’rif keltiradi: “Sadridin Salim butun borlig‘i bilan ayni buxorolik edi. Uning so‘zlari, ikki tilda ijod qilishi, jonkuyarligi, o‘sha qadimiy mulla yigitlarga xos xarakteri, yurish-turishi ham Buxoroni eslatib turardi”.<sup>16</sup> Oltinchidan, shoirning shaxsiy kutubxonasida nafaqat Sharq, balki G‘arbning mashhur ijodkorlari durdona asarlari ham yig‘ilgan edi. Ettinchidan, Buxoro pedagogika institutida ma’lum muddat olmon tilidan dars bergan Sadridin Salim Buxoriy talaba yoshlarning bilvosita tarjimalardan ko‘ra bevosita asliyatdan amalga oshirilgan tarjimalarni o‘qib-o‘rganishlari foydaliligini o‘z pedagogik amaliyotida kuzatgani bois olmon shoiri Gyotening “G‘arbu Sharq devoni”ni nemis tilidan to‘ppadan-to‘g‘ri o‘zbek tiliga o‘girdi. Sakkizinchidan, Sadridin Salim Buxoriy olmon shoiri Gyote ijodidan G‘aybulla as-Salom rahbarligida ilmiy izlanishlar olib bordi. To‘qqizinchidan, u nemis tili mutaxassisligi bo‘yicha o‘qishni bitirgach, shahar sayyohlik idorasida tarjimon sifatida ish boshlaydi. Vazifasi asosan Germaniyadan kelgan mehmonlarni Buxoro bilan tanishtirish, ularga diqqatga molik joylar, obidalar tarixini so‘zlab berishdan iborat bo‘lgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Sadridin Salim Buxoriy ijodida tarjima tili, janriy va mavzuiy ko‘lami**” deb nomlangan bo‘lib, ikki fasldan tarkib topgan. Uning ilk fasli “*Sadridin Salim Buxoriyning nemis, rus va fors-tojik tillaridan qilingan badiiy tarjimalari xususida*” deb atalgan. Sadridin Salim Buxoriy tarjimalarining janriy tarkibi rang-barang bo‘lib, uning o‘girmalari orasida nafaqat katta hajmli, balki kichik hajmli asarlargacha bor. Jumladan, taniqli nemis shoiri I.F.Gyotening mashhur “G‘arbu Sharq devoni” dostonidan tortib, nemis shoirlari she’rlari, to‘rtliklari, olmon xalq latifalari, fors-tojik shoirlarining ruboiy, g‘azallari tarjimalari shular sirasiga kiradi.

Shuni ham aytish kerakki, S.S.Buxoriy faqat nemis tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilmagan. U, o‘z navbatida, rus tiliga ham tarjimalar qilgan. Bunga uning “За границей” – (“Sarhadlarda”) she’ri tarjimasini misol keltirish mumkin.

Shoirning tojik va nemis tilidan amalga oshirilgan tarjimalari, tojik tilida yozgan she’rlari “Durdonalar” kitobidan o‘rin olgan.<sup>17</sup>

S.S.Buxoriy fors-tojik tiliga nafaqat tarjima qilgan, balki undan o‘zbek tiliga ham o‘giran. Masalan, ijodkor o‘zining “Oq qaldirg‘och” she’riy ertagini Buxoro xalqi orasida mashhur bo‘lgan “Aka, mana G‘ijduvon bared” (“Aka, mani G‘ijduvonga olib boring”) xalq qo‘shig‘i ohangida yaratgan bo‘lib, bunda shoir-tarjimon tojikcha matnning xalqona ohangi va lingvopoetik xususiyatlarini imkon qadar saqlagan holda uni o‘zbek tilida ifodalashga harakat qilgan.

<sup>12</sup> Зовут опять всех мусулман Востока. Стихотворения. Перевод Зинаиды Полвоновой. – Дружба. – 1977. – №5. – С.107.

<sup>13</sup> Солдат. – Газета “Комсомольская правда”. – 1979. – 2 сентябрь.

<sup>14</sup> Белое письмо. Перевод Николая Дмитриева. Поэзия. – Алманах. – 1980. – № 28. – С.49.

<sup>15</sup> Строка идущая от сердца. Перевод Г.Кавачкова. – Газета “Советская Бухара”. – 1980. – 5 январ.

<sup>16</sup> Комилов Н. Тафаккур карвонлари / Махсус мухаррир Р.Кўчқор – Т.: «Маънавият», 1999. – Б.18

<sup>17</sup> Садриддин Салим Бухорий. Дурдоналар. – Бухоро: “Бухоро”, 2005. – Б. 60.

Sadriddin Salim Buxoriy Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniyning yigirmaga yaqin ruboysini o'zbekchaga o'giran. Shoir ularda ham ba'zan fors-tojikcha, arabcha so'zlarni asliyatdagidek saqlagani kuzatiladi.

Muxtasar qilib aytganda, Sadriddin Salim Buxoriy o'zining nemis, rus va fors-tojik tillaridagi yetuk tarjima asarlari bilan ham o'zbek madaniyati va adabiyotiga munosib hissa qo'shdi. Shu bilan birga, adibning xalqimiz ma'naviy mulkiga aylangan ta'sirchan asarlari, tarjimalari dunyo ma'naviyatiga yanada uyg'unlashuvimiz yo'lida xizmat qilishi shubhasizdir.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasliga "Sadriddin Salim Buxoriy ijodida Sharqu G'arb mavzusi va "Mag'ribu Mashriq devoni" tarjimasining o'rni" deb nom berilgan. Sadriddin Salim Buxoriyning mutarjimlik sohasidagi mahorati olmonlarning mashhur shoiri Yohan Volfgang Gyotening "Mag'ribu Mashriq"devoni" tarjimasini amalga oshirish jarayonida yanada yuqori cho'qqiga erishdi, deyish mumkin. Chunki shoir uni o'zbek tiliga bevosita nemis tilidan o'girdi.

Ma'lumki, Gyotening "G'arbu Sharq devoni" turli tillarga tarjima qilingan. Ingliz, rus kabi bunday tarjimalar orasida devonning o'zbekcha tarjima variantlari ham borligi quvonarlidir. Bunda o'zbek tarjimonlari Sharq xalqlarining madaniyati, urf-odatlari, muhiti, sharq ruhini yaxshi bilganlari uchun boshqalarga qaraganda birmuncha muvaffaqiyatli tarjimaga erisha olganlar.

S.S.Buxoriy tarjimasida Hofizga Gyotening e'tiqodi, unga "pir", o'zini esa "murid", "izdosh", "Shayx Pir shogirdi" hisoblashi, oralaridagi xayoliy "ustoz" va "shogird"lik tushunchalari tasavvufning qoidalari asosida yoritilgan.

Asliyatda	V.Levikda	S.Salimovda
Und mag die ganze welt versinken Hafis, mit dir, mit dir allein! Will ich wetteifern! Lust und Pein Sei uns der Zwillingen gemein! Wie du zu lieben und zu trinken, Das soll mein Stolz, mein Leben sein <sup>18</sup> .	И что мне сельый мир? Судбою Тебе да уподоблюс я! Хафиз, мы будем как друзя! Сквоз бол и радост бытия, Любов и хмел пройдут с тобою, И в этом счастье – жизн моя <sup>19</sup> .	Menga olam g'ami bilki, abasdur, Ayo, Hofiz! Agar sen birla bo'lsam, Ki, faxru iftixorim sen, havasdur Seningday g'am chekib, sen kabi kulsam. Murodim may ichib sen birla bahsdur. Seningdek sevsamu so'ng mayli o'lsam <sup>20</sup> .

Asliyatdan rus tiliga V.Levik tarjimasida Hofiz bilan do'stlashish ma'nosi anglatilmoqda. Bu esa Gyote she'rining asl ma'no-mazmuniga to'liq mos kelmaydi. Chunki Gyote Hofizni o'ziga ustoz, o'zini esa undan o'rganuvchi shogird qiyofasida berishni ko'zda tutgan.

Keltirilgan yuqoridagi parchada "ganze", "versinken", "Zwillingen" so'zlari ham V.Levik tomonidan unchalik to'g'ri tarjima qilinmagan. S.S.Buxoriy esa bu

<sup>18</sup> Yohann Wolfgang von Goethe. West – ostlicher Divan. Stuttgart.

<sup>19</sup> В.В.Левик. Гёте. Из "Западно – восточного дивана" Изд. М. "Наука" Москва. 1988.-С. 29

<sup>20</sup> Йохан Вольфганг Гёте. Фарбу Шарқ девони./ Олмон тилида Садриддин Салим Бухорий таржимаси. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти. Тошкент. 2010 – Б. 29

o'rinda asliyatdagi bu kabi so'zlarning sinonimik variantlarini, mos ekvivalentlarini topib, shu orqali adekvat tarjimaga erisha olgan. Parchadagi "Und mag die ganze welt versinken" misrasini tarjima qilishda S.S.Buxoriy "g'ami abasdur" ("behuda yig'lash") birikmasini kiritib, tarjimaning semantikasiga putur yetkazmagan holda uni tovush jihatidan asl nusxaga yaqinlashtirgan. U asl matnda "may" so'zi bo'lmasa-da, tasavvufga xos "may", "ishq", "abadiylik" kabi tasavvufiy tushunchalarni keltirib, asar mazmunini ochishga harakat qilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**G'arbu Sharq devoni**" asarining qiyosiy tarjimalari: **mushtaraklik va individuallik**" deb nomlangan. Bobning birinchi fasli "*G'arbu Sharq devoni*"ning rus va o'zbek tillaridagi tarjima variantlarining asliyat bilan adekvatligi qiyosi" deb atalgan.

Y.V.Gyote "G'arbu Sharq devoni" (yoki "Mag'ribu Mashriq devoni")ni yaratishdan oldin sharqliklar sig'inadigan islom dinining muqaddas kitobi Qur'oni Karimni puxta o'rganishga kirishadi. Chunki bu vaqtda Qur'oni Karim nemis tiliga, bundan tashqari, lotin, ingliz, fransuz tillariga tarjima qilingan edi. Shoir bunda garchi hali yosh, aniqrog'i, yigirma to'rt yoshda bo'lsa-da, yuqorida sanab ko'rsatilgan tillarning barini mukammal bilgani uchun ushbu tarjimalarni qiyoslab o'rgandi. Shu tariqa yoshligidan Sharq xalqlari tillari, tarixi, adabiyoti, diniy-falsafiy qarashlari, udumlari, urf-odatlariga qiziqqan Gyote "West-östlicher Divan" ("G'arbu Sharq devoni")ni, avvalo, Kur'oni Karim va hadisi shariflar, tasavvuf ta'limoti ta'sirida, shuningdek, Sharq she'riyatining Ro'dakiy, Firdavsiy, Hofiz Sheroziy, Sa'diy, Anvariy, Nizomiy, Rumi, Jomiy, Navoiy kabi atoqli namoyandalarning g'azallari talqinida yaratdi. Hatto uni yaratish uchun o'ziga sharqona "Hotam" taxallusini tanladi. Nega bu taxallusni tanlaganini esa "West-östlicher Divan" ("G'arbu Sharq devoni")ning "Hafis Nameh" ("Hofiznoma") qismidagi "Beiname" ("Taxallus") deb nomlangan she'rida shoir va Hofiz o'rtasida kechgan dialog asosida izohlab beradi. She'r shoirning Hofizga: "Nega asl isming Muhammad Shamsiddin bo'lsa-da, eling senga Hofiz deb nom qo'ygan" degan savoli bilan boshlanadi.

<b>West-Östlicher Divan Hafis Nameh Beiname</b>	<b>G'arbu Sharq devoni. Hofiznoma Taxallus</b>
Mohamed Schemseddin, sage Warum hat dein Volk, dashehre, Hafis dich genannt?	Ayo, Muhammad Shamsiddin, Nechun eling Hofiz deb nom Quymish senga?

Anglashilayotirki, Sharqda, aniqrog'i, musulmon olamida Qur'oni Karim oyat va suralarini to'la yoddan bilgan pok qalbli, iymon-e'tiqodli, ixlosmand zotlarga sharaflari Hofiz nomi berilgan. Gyote ham Qur'oni Karim oyatu suralarini, hadislarni ixlos bilan imkon qadar o'rgangani, Ollohga iymon keltirib, ilohiy nurga intilgani uchun o'zini shunday insonlarga o'xshatib, Hofiz taxallusini qo'llashga jur'at etadi.

Adabiyotshunos olim N.Komilov ta'biri bilan aytganda, Sharqu G'arb ruhi mujassamlangan Gyotening "Devon"i ikki madaniyat qonidan paydo bo'lgan farzanddir.<sup>21</sup>

<sup>21</sup> Комилов Н. Тафаккур карвонлари / Махсус мухаррир: Р.Кўчқор – Т.: «Маънавият», 1999. – Б.14.

Bizningcha, asarning nomlanishida ikki juftlik (G‘arbu Sharq) muhabbatini namoyon etuvchi ramziylik ham mavjud. Chunki devonda g‘arblik Gyotening sharqliklarga muhabbati yorqin sezilib turadi. Yana shoir Sharqda chin oshiqlik, vafodorlik va sadoqat timsoliga aylangan Layli va Majnun, Farhod va Shirin kabilarning nomini alohida tilga olib, g‘arbliklarni muhabbat bobida ulardan timsol olishga, o‘rganishga chorlaydi.

Aytish kerakki, Gyote “G‘arbu Sharq devoni”ni ko‘proq Hofiz she‘riyati ta‘sirida yaratgan. U Hofiz devonini Fon Hammer-Purgshtal tarjimasida o‘qib-o‘rganib, unga shu darajada ixlos qo‘yadiki, hatto qattiq ta‘sirlanganidan o‘zini “Sheroz bulbulining muridi”, deya e‘lon qiladi. Mazkur tarjima Gyote “G‘arbu Sharq devoni” (“West-Östlicher Divan“,)ning yaratilishiga asosiy zamin bo‘lgan.

Bobning ikkinchi fasli “G‘arbu Sharq devoni”ning *Maqsud Shayxzoda va Sadriddin Salim Buxoriy tarjimalaridagi mushtaraklik va farqli jihatlar*” deb yuritilgan. “G‘arbu Sharq devoni”ning ilk o‘zbek tarjimoni – shoir Maqsud Shayxzoda. U bu asarni she‘riy ko‘rinishda rus tilidan o‘zbek tiliga o‘g‘irgan. Asar “Hijrat – ko‘chish” she‘ri bilan boshlanadi. U devondagi birinchi she‘rdir.

Moganni Nameh (Mug‘anniynoma) Hegire (Hijrat – ko‘chish)	M.Shayxzoda tarjimasida	S.S.Buxoriy tarjimasida
Nord und West und Süd zersplittern Throne bersten, Reiche zittern, Flüchte du, im reinen Osten Patriarchenluft zu kosten; Unter Lieben, Trinken Singen Soll dich Chisers Quelle verjüngen <sup>22</sup> .	Buzildi g‘arb, janub va shimol, Taxtu tojlar bo‘ldi poymol! Sen yiroqqa, kun chiqarga boq! Unda qo‘shiq, sevgi bor, may bor..., U tabarruk havoni shimir Va boshlagil yangidan umr <sup>23</sup>	Taxtlar qulab, ne taajjub Xarob Shimol, Mag‘rib, Janub Sharqqa hijrat erur vojib Unda ishqu mayu mutrib Xamda Xizr suvi bordir Boqiy umr senga yordir <sup>24</sup> .

Ma‘lumki M.Shayxzoda “G‘arbu Sharq devoni”ni rus shoiri V.Levik tarjimasida orqali bilvosita tarjima qilgan. Asl matndagi *flüchten* fe‘li o‘zbek tiliga tarjima qilinganda, qochmoq (ya‘ni mamlakatdagi ijtimoiy va siyosiy jarayonlardan norozi bo‘lgan holda “mamlakatdan bosh olib chiqib ketmoq”) ma‘nosini bildiradi. So‘zma-so‘z tarjima qilinganda Flüchte du, (qoch) im reinen (pok, toza) Osten (Sharqqa), Lieben – sevgi, muhabbat, Trinken – ichish, Singen – kuylash fe‘llardan yasalgan otlar qo‘llangan, Ushbu misra S.S.Buxoriy tarjimasida adekvat ravishda *Sharqqa hijrat erur vojib* shaklda tarjima qilingan.

Maqsud Shayxzoda tarjimasida bilan S.S.Buxoriy tarjimasida o‘rtasida ba‘zi mushtarakliklar borligi barobarida anchagina farqliklar ham mavjud. Ularga xos

<sup>22</sup> Yohann Wolfgang Goethe. Moganni Nameh/ West – östlicher Divan. –S 4

<sup>23</sup> Мақсуд Шайхзода. Чорак аср девони./Танланган асарлар. “Адабиёт нашриёти” – Тошкент: 1958. – Б. 458

<sup>24</sup> Йохан Вольфганг Гёте. Ғарбу шарқ девони.Олмон тилидан Садриддин Салим Бухорий таржимаси. – Тошкент: 2010.- Б. 16.

